

OMMAVIY OFERTA
“Ajoyib Photozone Contest”
Promo- aksiyasida ishtirok etish qoidalari

Sana: 3.04.2026

Ushbu **“Ajoyib Photozone Contest”** reklama aksiyasi (**“Aksiya”**)da ishtirok etish qoidalari **“SAMSUNG ELECTRONICS UZBEKISTAN”** MChJ XK (**“Tashkilotchi”**) va Aksiya ishtirokchisi o‘rtasidagi kelishuvdir. Aksiyada ishtirok etish ixtiyoriydir va Aksiyada ishtirok etish Aksiya Ishtirokchilari https://www.samsung.com/uz_uz/handraiserces/ manzillarida joylashtirilgan rasmiy internet-do‘kon veb-saytida (**“Aksiya sayti”**) Aksiya qoidalari (**“Qoidalar”**) bilan tanishganligini va so‘zsiz roziligini bildiradi.

1. Umumiy shartlar

1.1. **Tashkilotchi:** O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent sh., 100000, Yunusobod tumani, Oloy Bozori Berk ko‘chasi, 64-uy, "ORIENT BUSINESS CENTER" 11-qavatida joylashgan **“Samsung Electronics Uzbekistan”** MCHJ XK.

1.2. Aksiyaning o‘tkazilish davri: 2026-yil 30-aprel Toshkent vaqti bilan soat 18:00 dan 2026-yil 14-may (shu kun ham kiradi) 18:00 gacha;

1.3. **Aksiyaning yakunlarini sarhisob qilish sanasi: 2026 yil 15 may soat 18:00 da, Toshkent vaqti bilan.**

1.4. **Aksiya o‘tkaziladigan hudud:** Tashkilotchining rasmiy instagram sahifasi (Samsung Uzbekistan-<https://www.instagram.com/samsunguzbekistan>)

1.5. **Sovg‘alarni topshirish nuqtasi:** O‘zbekiston Respublikasi, 100000, Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Oloy Bozori berk ko‘chasi, 64-uy, **“ORIENT”** biznes markazi, 11-qavat.

1.6. **Aksiya veb-sayti Aksiya haqida asosiy ma‘lumot manbayi hisoblanadi.** Tashkilotchining ijtimoiy tarmoqlaridagi Aksiya haqidagi ma‘lumotlar qisqartirilgan bo‘lib, barcha to‘liq va batafsil ma‘lumotlar ushbu Qoidalarda keltirilgan.

1.7. **Tasodifiy sonlar generatori** - g‘olibni tasodifiy tanlash uchun ishlatiladigan vosita, yakuniy natijaga aralashish yoki tarafkashlik ehtimolini yo‘q qiladi.

1.8. **G‘olib**-ushbu shartlarni bajargan va tasodifiy sonlar generatori yordamida aniqlangan jismoniy shaxs.

2. Aksiya Ishtirokchisi

2.1. Ushbu Qoidalarning barcha shartlarini shaxsan, o‘z kuchi va vositalari bilan bajargan, O‘zbekiston Respublikasi rezidenti bo‘lgan, shu jumladan O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligiga ega, 18 yoshga to‘lgan, muomalaga layoqatli barcha jismoniy shaxslar, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasida yashash uchun ruxsatnomaga ega bo‘lgan chet el fuqarolari Aksiya Ishtirokchilari bo‘lishi mumkin (**“Ishtirokchi”**).

2.2. Tashkilotchining xodimlari, affillangan shaxslar, ularning oila a‘zolari, shuningdek, Aksiyani tashkil etish va o‘tkazishda ishtirok etayotgan boshqa kompaniyalar xodimlari Aksiyada ishtirok eta olmaydi.

2.3. Aksiyada ishtirok etib, shuningdek, ro‘yxatdan o‘tish paytida va boshqa yo‘llar bilan har qanday ma‘lumotni (shu jumladan Aksiya veb-saytida), shunindek shaxsiy ma‘lumotlarni quyidagi hajmda taqdim etish orqali, Ishtirokchi o‘z shaxsiy ma‘lumotlarini to‘plash, saqlash, uzatish shu jumladan transchegaraviy ravishda va qayta ishlashga roziligini beradi: Aksiyani, uning shartlariga rioya etilishini, reklama, marketing va axborot byulletenlarini monitoring qilish, shuningdek marketing maqsadlarida boshqa bevosita aloqalarni o‘rnatish maqsadida Tashkilotchiga va u vakolat bergan uchinchi shaxslarga o‘zining joylashgan shahri, to‘liq ismi, shaxsni tasdiqlovchi hujjat ma‘lumotlari (shaxsni tasdiqlovchi hujjat yoki chet el fuqarosining yashash

ruxsatnomasi), telefon raqami, elektron pochta manzili, yashash manzili haqida ma'lumotlarni taqdim etadi. Rozilik belgilangan qayta ishlash maqsadlariga erishish uchun zarur bo'lgan uzatilgan ma'lumotlarni qayta ishlashning barcha turlariga nisbatan qo'llaniladi, shu jumladan, lekin ular bilan cheklanmagan holda: olish, ovozi/tasvirli yozib olish, saqlash, aniqlashtirish, foydalanish, o'chirish, yo'q qilish, uzatish (shu jumladan amaldagi.

qonunchilikka muvofiq transchegaraviy uzatish), shu jumladan Tashkilotchining vakolatli shaxslariga/boshqa vakolatli shaxslarga/uchinchi shaxslarga. Rozilik bunday ma'lumotlar Tashkilotchiga topshirilgan paytdan boshlab va amaldagi qonunchilikda belgilangan tartibda ushbu rozilik qaytarib olinmaguncha amal qiladi.

2.4. Aksiyada ishtirok etish orqali Ishtirokchi Tashkilotchiga foto/video suratga olish, saqlash, foydalanish, o'z surati/ishtiroki bilan tegishli foto/video materiallarni Tashkilotchining veb-saytida, Tashkilotchining ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalarida, shuningdek, boshqa maqsadlarda joylashtirishga shu jumladan, lekin ular bilan cheklanmagan holda, buxgalteriya hisobotini olib borish va hisobot uchun foydalanishga so'zsiz va beg'araz rozilik beradi.

3. Aksiyada ishtirok etish shartlari

3.1. Aksiyada ishtirok etish uchun, Ishtirokchi quyidagi harakatlarni amalga oshirishi kerak:

3.2. Aksiyada ishtirok etish uchun Ishtirokchi 2026-yil 30-aprel soat 18:00 dan 2026-yil 14-may soat 18:00 gacha (Toshkent vaqti bilan, shu jumladan) quyidagi barcha harakatlarni bajarishi lozim:

3.3. Aksiya davrida Ishtirokchi Instagram'dagi sahifamizga obuna bo'lishi kerak. Obuna uchun havola: Instagram sahifa: <https://www.instagram.com/samsunguzbekistan?igsh=ZHpWmXm5eXEzeDlx>

3.4. Aksiya davrida Ishtirokchi o'zining shaxsiy Instagram akkauntida Toshkent shahridagi, Bobur ko'chasi 174/2 manzilida joylashgan «Magic City» ko'ngilochar bog'i hududidagi Samsung Uzbekistan fotohududidan story yoki post joylashi kerak: <https://yandex.com/maps/-/CPSKllIC> shuningdek, post yoki storida Samsung Uzbekistan Instagram akkauntini belgilashi lozim. Instagram sahifa: <https://www.instagram.com/samsunguzbekistan?igsh=ZHpWmXm5eXEzeDlx>

3.5. Ushbu keltirilgan qoidalarga to'liq va shartsiz rioya qilgan ishtirokchilarga to'liq qatnashishga ruxsat beriladi.

3.6. Har bir ishtirokchiga, bir marotaba qatnashish imkoni beriladi. Ya'ni barcha ishtirokchiga aksiyada butun muddat davomida ko'pi bilan bir marta ishtirok etish huquqiga ega.

3.7. Aksiya tashkilotchisi Ishtirokchilar tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarning to'g'riligi, to'liqligi va to'g'riligini, shuningdek, ularning ushbu Qoidalarga rioya qilishini tekshirish huquqini o'zida saqlab qoladi. Agar noto'g'ri ma'lumotlar taqdim etilsa, ishtirok etish shartlari buzilgan bo'lsa yoki ushbu Qoidalarda boshqa biron bir nomuvofiqlik mavjud bo'lsa, Tashkilotchi bunday Ishtirokchining Aksiyada ishtirok etishini rad etish va/yoki ularning ishtirok natijalarini oldindan ogohlantirmasdan va hech qanday kompensatsiyasiz bekor qilish huquqini o'zida saqlab qoladi.

3.7. Agar firibgarlik, nohaq harakatlar yoki bir xil shaxs tomonidan takroriy ro'yxatdan o'tish aniqlansa, ularning tegishli aksiyadagi ishtiroki haqiqiy emas deb hisoblanadi. Tashkilotchi bunday ishtirokchining joriy

aksiya va keyingi barcha aksiyalar uchun natijalarini keyingi ogohlantirishsiz bekor qilish huquqini o'zida saqlab qoladi.

4. Sovg'alar

5.1. Aksiyadagi sovg'a quyidagi SAMSUNG tovar belgisi ostidagi mahsulotlardan iborat ("Sovg'a"):

Birinchi o'ringa : Yangi Samsung Galaxy A37 7 5G (SM-A376ELVGSOZ) – 1 dona

Ikkinchi o'ringa: Watch8 Classic 46mm BL BLACK (SM-L500NZKACIS) – 1 dona.

5.2. Umumiy sovg'alar soni — 2 (ikki) dona.

5.3. Aksiya doirasida olingan Sovg'aga ushbu turdagi mahsulotlar uchun belgilangan standart kafolat amal qiladi.

5.4. Sovg'aning rangi mahsulotning Rasmiy Hamkorning omborida yoki Rasmiy Hamkorning Sovg'a olish joyida mavjudligiga bog'liq bo'lib, bu manzil 1.1-bandga muvofiq hisoblanadi. Rangi, shuningdek, Aksiya veb-saytidagi rasmdan farq qilishi mumkin.

5.5. Aksiya doirasida olingan sovg'a ushbu turdagi mahsulotlar uchun standart kafolat bilan qoplanadi.

5.6. Sovg'a Sovg'ani o'rnatish yoki ulash uchun hech qanday ish/xizmatlarni o'z ichiga olmaydi.

5.7. Quyidagi hollarda Ishtirokchi Aksiyada ishtirok etish huquqini yo'qotadi va Sovg'ani talab qila olmaydi

5.7.1. Aksiyaning har qanday shartlarini buzishda;

5.7.2. Ishtirokchi bilan bog'lanish uchun yolg'on/noto'g'ri ma'lumotlar taqdim etilganda;

5.7.3. Firiqarlikka urinish yoki boshqa qonunga xilof harakatlar faktlari aniqlanganda;

5.7.4. Ro'yxatga olish ma'lumotlari uchinchi shaxslarga o'tkazilgan taqdirda;

5.7.5. Ushbu Qoidalarni buzgan holda ma'lumot/hujjatlarni taqdim etish va/yoki fotosuratlar/video suratga olishdan bosh tortishda.

5.8. Tashkilotchi hech qanday holatda Sovg'ani naqd puldagi ekvivalent summaga almashtirmaydi va/yoki tegishli Sovg'ani boshqa mahsulot bilan almashtirmaydi.

5.9. Sovg'ani olish munosabati bilan yuzaga keladigan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar Tashkilotchi tomonidan mustaqil ravishda va o'z mablag'lari hisobidan to'lanadi.

5.10. Agar biron-bir shaxs Sovg'a qiymatini to'lashni, soliq yoki boshqa to'lovlarni to'lashni talab qilsa, iltimos, bunday to'lovlarni amalga oshirmang va darhol Tashkilotchi bilan bog'laning.

5.11. G'olib tomonidan 2026-yil 27-fevralgacha da'vo qilinmagan sovg'alar talab qilinmagan hisoblanadi. Talab qilinmagan sovg'alar saqlanmaydi va Tashkilotchi tomonidan o'z xohishiga ko'ra foydalaniladi. Sovg'a G'olibga 2026-yil 14-may 2026-yil 14- iyungacha topshiriladi.

5. Aksiya G'oliblarini aniqlash

6.1. Ushbu Aksiya doirasida g'oliblar tanlovning barcha shartlarini to'g'ri bajargan ishtirokchilar orasidan beshta toifada aniqlanadi.

6.1.1. Birinchi o'ringni egallagan g'olib tasodifiy sonlar generatori yordamida birinchi marta ishga tushirish orqali tasodifiy tartibda aniqlanadi. Buning uchun tanlov shartlarini to'liq bajargan barcha ishtirokchilarning raqamlangan ma'lumotlarini o'z ichiga olgan ishtirokchilar ro'yxati (jadvali) qo'llaniladi. Tasodifiy sonlar generatorining birinchi ishga tushirilishi natijasida aniqlangan raqam mazkur raqamga mos keluvchi ishtirokchiga tegishli bo'lib, ushbu ishtirokchi birinchi o'rin g'olibi deb e'tirof etiladi hamda belgilangan sovrinni qo'lga kiritadi.

6.1.2. Ikkinchi o'rin g'olibi ham tasodifiy sonlar generatori yordamida aniqlanadi:

tasodifiy sonlar generatorining ikkinchi marta ishga tushirilishi natijasida ikkinchi o'rin uchun belgilangan sovrinni qo'lga kirituvchi g'olib aniqlanadi.

6.1.3. Ushbu aksiya doirasida g'oliblar soni 2 (ikki) nafarni tashkil etadi.

Aksiya g'oliblarini aniqlash va Sovg'alarni topshirish tartibi.

6.2. Aksiya g'oliblarini aniqlash va Sovg'alarni topshirish tartibi

6.2.1. Mazkur Qoidalarga muvofiq, ishtirok etish shartlarini belgilangan tartibda va to'liq bajargan Ishtirokchi Sovg'alar o'ynashida ishtirok etish huquqiga ega bo'ladi.

6.2.2. Mazkur Qoidalarning 6.1.3-bandiga muvofiq, Aksiya g'olibini (g'oliblarini) aniqlash maqsadida Aksiya Tashkilotchisi ishtirok etish shartlarini lozim darajada bajargan Ishtirokchilar orasidan tasodifiy sonlar generatori (randomayzer) yordamida bir nafar G'olibni tasodifiy tanlash yo'li bilan o'yin (draw) o'tkazadi.

6.2.3. Tasodifiy sonlar generatori tasodifiy son qiymatini shakllantiradi, ushbu qiymat Aksiya Tashkilotchisi tomonidan to'g'ri va to'liq to'ldirilgan so'rovnomalar asosida shakllantirilgan Ishtirokchilarning umumlashtirilgan jadvalidagi Ishtirokchining tartib raqamiga moslashtiriladi.

6.2.4. Ishtirokchilarning umumlashtirilgan jadvali ishtirok etish shartlarini bajargan barcha Ishtirokchilar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi va faqat o'yin o'tkazish hamda G'olibni aniqlash maqsadlarida foydalaniladi.

6.2.5. G'olibni aniqlash Instagram ijtimoiy tarmog'ida @samsunguzbekistan rasmiy sahifasida o'tkaziladigan jonli efir davomida amalga oshiriladi. Jonli efir doirasida Aksiya Tashkilotchisi ommaviy ravishda faqat G'olibning familiyasi, ismi va otasining ismini namoyish etadi.

6.2.6. G'oliblar aniqlangandan so'ng, Aksiya Tashkilotchisi so'rovnomani to'ldirish chog'ida G'olib tomonidan ko'rsatilgan telefon raqami orqali u bilan bog'lanishga urinishni amalga oshiradi. Aksiya Tashkilotchisi uch (3) martadan ortiq bo'lmagan telefon qo'ng'irog'ini amalga oshirish huquqiga ega.

6.2.7. Agar G'olib uch (3) marotaba amalga oshirilgan bog'lanish urinishlari natijasida telefon qo'ng'irog'iga javob bermasa yoki o'z shaxsini tasdiqlamasa, uning ishtirok etish natijalari bekor qilinadi va bunday Ishtirokchi Sovg'ani olish huquqsiz G'olib maqomini yo'qotadi.

6.2.8. Mazkur Qoidalarning 6.2.7-bandida nazarda tutilgan holatda, Aksiya Tashkilotchisi tasodifiy sonlar generatoridan foydalangan holda G'olibni qayta aniqlash tartibini takroran amalga oshiradi. Ushbu tartib o'z shaxsini tasdiqlagan va Sovg'ani mazkur Qoidalarga muvofiq qabul qilgan G'olib aniqlanguniga qadar davom ettiriladi.

6.2.9. O'yin o'tkazilishi bilan bog'liq jonli efir 2026-yil 14-may kuni Toshkent shahri vaqti bilan soat 20:00 dan 21:00 gacha bo'lgan vaqt oralig'ida bo'lib o'tadi.

6.3. Sovg'ani olish uchun G'olib quyidagilarni bajarishi shart:

6.3.1. Ushbu Qoidalarining 1.1-bandida ko'rsatilgan Sovg'alarni qabul qilish punktida shaxsan va o'z hisobidan kelishi;

6.3.2. Agar Respublika rezidenti bo'lmasa, O'zbekiston Respublikasi fuqarosi pasportini yoki yashash uchun ruxsatnomani taqdim etish;

6.3.3. Sovg'ani qabul qilish to'g'risidagi guvohnomani to'ldirish va imzolash;

6.3.4. JSHSHIR (PINFL) raqamini taqdim etish;

6.3.5. Zarur bo'lganda, sovg'ani qo'lida ushlab fotohisobot olishga rozilik berish.

6.3.6. Zarur bo'lganda, Aksiya natijalari Tashkilotchi tomonidan Aksiya veb-saytida va/yoki Tashkilotchining ijtimoiy tarmoqlarida 2026-yil 14-may kechiktirmay e'lon qilinadi.

6.3.7. Aksiya g'olibi sovg'ani faqat ushbu Qoidalarining 1.1-bandida ko'rsatilgan Sovg'alarni qabul qilish punktida olishi mumkin;

6.3.8. Sovg'a tarqatish punktlari Aksiya g'oliblariga faqat Aksiyaning barcha shartlari va qoidalariga qat'iy rioya qilingan taqdirdagina sovg'alar beradi.

7. Aksiya Ishtirokchisining huquq va majburiyatlari

7.1. Aksiya Ishtirokchisining huquqlari

- Ushbu Qoidalar bilan tanishib chiqish;
- Ushbu Qoidalarda belgilangan tartibda Aksiyada ishtirok etish;
- Aksiyaning o'tkazilish muddatlari va shartlari haqida ma'lumotlarni Aksiya Saytidagi ommaviy resurslar va aloqa kanallari orqali olish;
- Aksiya Saytida ushbu Qoidalarining o'zgarishlari haqida ma'lumot olish;
- Ko'rsatilgan o'zgarishlarga rozi bo'lmaganda, Aksiyadan voz kechish orqali o'zgarishlarni qabul qilmaslik. Ushbu sanadan keyin aksiyada davom etish ishtirokchining o'zgartirishlarga rozilik bildirishi sifatida qabul qilinadi;
- Aksiya Tashkilotchisi haqida ma'lumot olish;
- Ushbu Qoidalarga muvofiq Sovg'ani olishni talab qilish;

7.2. Aksiya Ishtirokchisining majburiyatlari

- Qoidalarga rioya qilish, shu jumladan aksiyada ishtirok etish bilan bog'liq barcha harakatlarni ushbu Qoidalarda belgilangan muddatlarda bajarish;
- Aksiyada ishtirok etish bilan bog'liq barcha xarajatlarni qoplash, shu jumladan (lekin bu bilan cheklanmagan holda) Internet, telefon va h.k
- ushbu Qoidalarda va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida nazarda tutilgan boshqa majburiyatlarni o'z zimmasiga olish.

8. Aksiya Tashkilotchisining huquq va majburiyatlari

8.1. Tashkilotchisining huquqlari:

- Aksiya davri davomida ushbu Qoidalarini bir tomonlama o'zgartirish, Aksiya Saytida tegishli xabar joylashtirish orqali ishtirokchini oldindan xabardor qilib Aksiyani ilgari belgilangan muddatdan avval tugatish. Xabar berish sanasi Aksiya veb-saytida tegishli ma'lumotlarning e'lon qilingan sanasi yoki shartlarni o'zgartirishda ko'rsatilgan qo'shimcha sana hisoblanadi. Aksiyada ishtirok etishni davom ettirish Ishtirokchining kiritilgan o'zgarishlarga roziligi hisoblanadi.

- Ishtirokchilardan ushbu Qoidalarda nazarda tutilgan hollarda zarur ma'lumotlar va hujjatlarni, shuningdek davlat organlariga taqdim etish uchun boshqa hujjatlarni so'rash;
 - Tashkilotchi ushbu Aksiya qoidalari va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida nazarda tutilgan barcha huquqlardan foydalanadi;
 - Qoidalarning 4.1-bandida ko'rsatilgan barcha shartlarni to'g'ri va to'liq bajarmagan Aksiya Ishtirokchisiga sovg'a berishni rad etish;
 - Aksiya Ishtirokchisi tomonidan ushbu Qoidalarga rioya qilmaslik fakti aniqlangan taqdirda, Aksiya Ishtirokchisiga Sovg'a berishni rad etish.
- Ishtirokchilarning shaxsiy ma'lumotlarini 1 yil davomida marketing va shunga o'xshash tadqiqotlar uchun ma'lumotlarni qayta ishlash huquqi.

8.2. Aksiya Tashkilotchisining majburiyatlari

- Qoidalarga rioya qilish, Aksiya bilan bog'liq barcha harakatlarni Qoidalarda belgilangan muddatlarda bajarish;
- Aksiyaning Qoidalarga muvofiq o'tkazilishini ta'minlash;
- Aksiyani o'tkazish qoidalarini Aksiya veb-saytida va tanlangan aloqa kanallari orqali joylashtirish orqali Aksiya Ishtirokchilari uni amalga oshirish Qoidalari to'g'risida xabardor qilinishini ta'minlash;
- Qoidalarning barcha shartlarini to'g'ri bajargan barcha Aksiya Ishtirokchilariga aksiya sovg'alarini taqdim etish

9. Boshqa shartlar

9.1. Aksiyaning barcha Ishtirokchilari unda ishtirok etish orqali Aksiya qoidalariga rozilik bildiradilar va ularga rioya qilish va bajarish majburiyatini oladilar. Ishtirokchi Sovg'ani olish huquqini yo'qotadi agar

- Ishtirokchi ushbu Aksiya qoidalarini buzsa;
- Ishtirokchi Sovg'ani olish uchun firibgarlik va/yoki aldash harakatiga yo'l qo'ygan bo'lsa;
- Ishtirokchi noto'g'ri ma'lumotlarni taqdim etgan bo'lsa;
- Tashkilotchi 30 kun ichida Ishtirokchi taqdim etgan aloqa ma'lumotlari orqali u bilan bog'lana olmasa.

9.2. Aksiyada ishtirok etish orqali Ishtirokchi ushbu Qoidalarga so'zsiz roziligini bildiradi. Ishtirokchining Qoidalarni to'liq va/yoki qisman bajarishdan bosh tortishi Ishtirokchining Aksiyada ishtirok etishni rad etishi deb e'tirof etiladi.

9.3. Aksiya davomida Ishtirokchidan shaxsini tasdiqlash uchun pasportni taqdim etish talab qilinishi mumkin;

9.4. Aksiya musobaqa, lotereya yoki boshqa xavfga asoslangan qimor o'yini emas.

9.5. Fikr-mulohazalarni olish uchun, Ishtirokchiga Tashkilotchi/Hamkorning xizmat ko'rsatish sifatini nazorat qilish uchun Sifat nazorati bo'limidan qo'ng'iroq qilishlari mumkin. Ishtirokchi o'z fikrini bildirishdan bosh tortishi mumkin.

9.6. Ommaviy ofertaning o'zbek va rus tillaridagi versiyalari o'rtasida tafovut yuzaga kelgan taqdirda, rus tilidagi versiya ustunlik qiladi.

Aksiya bilan bog'liq har qanday savollar bo'yicha Tashkilotchiga aloqa ma'lumotlari orqali murojaat qiling. Tashkilotchining call markazining aloqa ma'lumotlari:

7799 – yagona qoʻllab-quvvatlash xizmati.